



BAYONIY LIRIK SHE'RIYATIDA ISHQ VA INSON KAMOLATINI TALQINI

Madrimova Yorqinoy Jumamurot qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

O'zbek adabiyoti kafedrasini fan kabinet mudiri.

Annotatsiya: *Maqolada ishqning "ming bir ma'no" kasb etishi e'tirof etilib, Bayoniyning ishqiy mavzudagi she'rlari tahlilida mahbubaning tashqi qiyofasi ta'rifida tasavvufiy ma'noni ilgari surishi yetakchilik qilishi o'rganilgan. Shuningdek, shoir she'riyatidagi ishqning majoziy va haqiqiy ishq talqini masalasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ishq, komillik, rahnoma, tasavvuf, murid, tariqat, pir, ruhiy poklik, sharm-hayo, mahbuba, majoziy, ilohiy.*

Аннотация: *В статье отмечается, что любовь имеет «тысяча значений», и при анализе стихотворений Баяни на тему любви изучается, что в описании внешности возлюбленного лидирует выдвижение мистического смысла. Также освещается вопрос метафорической и реальной любовной трактовки любви в поэзии поэта.*

Ключевые слова: *любовь, совершенство, лидерство, мистика, murid, тарикат, pir, духовная чистота, застенчивость, возлюбленный, метафорический, божественный.*

Abstract: *The article recognizes that love has a "thousand and one meanings", and in the analysis of Bayani's poems on the theme of romance, it is studied that the promotion of the mystical meaning leads in the description of the beloved's appearance. Also, the issue of metaphorical and real love interpretation of love in the poet's poetry is covered.*

Key words: *love, perfection, leadership, mysticism, murid, tariqat, pir, spiritual purity, shyness, beloved, metaphorical, divine.*

O'zbek mumtoz adabiyotining ko'plab vakillari Sharq mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ijodkorlardir. Tabiiyki, bunda mumtoz adabiyotimizning milliy va umuminsoniy g'oyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bayoniy lirik she'riyatning hamma janrlarida ijod etgan. Uning asarlari o'z davrida nihoyatda mashhur bo'lgan shoir ijodini o'rganish va targ'ib qilish o'zi hayotlik davridanoq boshlangan. Laffasiy "Tazkirai shuaro" asarida Bayoniyning shoir, tarixchi va tarjimonlik faoliyatiga alohida to'xtalib o'tadi. Laffasiy uni ko'p qirrali qobiliyat sohibi sifatida tilga olib, uning tib ilmi, musiqa va u xattotlikdan ham puxta bilimdon ekanini ta'kidlaydi. She'rlarining o'ziga xos jihatlari va badiiy go'zalligiga diqqat qilib, g'azallaridan ayrim namunalar keltiradi. Bobojon Tarroh esa Bayoniyning insoniy va ijodkorlik sifatlariga alohida urg'u berib ko'pgina ilmlarini puxta o'rganganligini bayon etadi. U shoirni "shu ilm orqasidan shoir



bo'ldi, shoir bo'lganda ham birinchi surat shoir bo'ldi", -deb shoirligiga yuqori baho berdi.

Bayoniy haqida ma'lumot beruvchi manbalaridan biri uning o'z asarlaridir. U yetuk tarixnavis sifatida "Shajarai Xorazmshohiy" va tugallanmagan "Xorazm tarixi" nomli asarlarini yozib qoldirdi. Bu bilan Bayoniy Xorazm shajaraviy tarixnavisligining davomchisi sifatida shuhrat qozongan. Uning "Shajarai Xorazmshohiy" asari tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatarda o'sha davrdagi Xorazm adabiy muhiti haqida ham yaxlit tasavvur qilishga imkon beradi. Asar shoirning hayoti va ijodini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda shoir hayoti va ijodi maslakdosh do'stlari, Bayoniyning o'z qalamiga mansub ko'plab she'r va she'riy parchalar keltirildiki, bu shoir faoliyati bilan bog'liq keladigan joylarni ma'lum ma'noda to'ldiradi.

Shubhasiz, bunday tarixiy qayd va ma'lumotlar Bayoniy lirikasini to'plash va targ'ib qilish, shaxsiyati va iste'dodini baholash nuqtai nazaridan o'z davri uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular bugungi kunda qimmatini yo'qotgan emas.

Shoir she'riyatining mavzu doirasi rang-barang bo'lib, lirik asarlarida hayot, inson, tabiat, jamiyat muammolari turfa xil shakllarda qalamga olindi. Uning nazmida Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil kabi shoirlarning an'analari davomchisi sifatida ishq muhabbat tasviri bosh mavqeda turadi. Shoir muhabbatni kuylash orqali inson hayoti, taqdiri va turli kechinmalarini tasvirleydi. Bayoniy lirik she'rida sevgidan zavqlanish, oliyjanob insoniy g'urur, jo'shqinlik, ruhiy g'alayon, e'tiqod, iymon, kamtarlik, ilm kamolatga erishish, kishilarga yaxshilik qilish kabi muhim hayotiy-ijtimoiy muammolarning badiiy yechimini topish mumkin. Shoir ijodida ishq go'zal tuyg'u sifatida talqin etiladi. Ishqdan mamnunlik, vasl umidi, hijron azobi, ishqqa sadoqat kabi inson ma'naviyatidagi muhim xislatlar Bayoniy she'riyatida butun murakkabliklari bilan aks ettiriladi. Bayoniy she'rlarida qo'llanilgan tasviriy vositalar, timsollar an'anaviy she'riyat talablariga javob beradi:

*Va ne balo dilkashdur, ey barno musalsas kokiling
Gul ichra sunbuldurur, zebo musalsas kokiling
Ziynat uzra ziynat bo'lib gulgun uzoring davrida
Bermish ikki yondan ajabro musalsas kokiling. [1.]*

Shoir yorning kokilini ta'riflar ekan, istiora, o'xshatish va takror san'atlari vositasida kokilning chiroyli va insonga xush keltiradigan jihatlarini vasf etadi.



Ma'shuqa kokili gul yuzli uzorga ziynat bag'ishlashga diqqat qaratadi. Mazkur baytlarni o'qiganda kishi tengsiz go'zallik sohibasi bo'lgan mahbuba qiyofasi va uning aniq ruhiyatiga ko'rsatgan ta'sirini qalban his etadi.

Bayoniy ishqiy mavzudagi she'rlarining ba'zilarida ijtimoiy mazmundagi fikrlarni ham bayon etadi. Quyidagi baytlar fikrimizga yaxshi misol bo'lib, ular shoirning taqdir zamona haqidagi mulohazalarini aks ettiradi.

*Yodi hayoli bas mango, bas mani dahri dunyo aro,
Hojatim e'tibora yo'q bo'lmasa bo'lmasun netay.*

Bu dunyoda inson o'z qadr-qimmatining oyoq osti qilinishi, inson-dardi, mashaqqat-u tashvishlarining e'tiborsizligi lirik qahramon qalbini larzaga soladi. U uchun hayotning o'zidan ko'ra orzu, hayollar bilan yashash afzalligi keltiriladi.

Shoir lirikasining asosiy mavzusini ishq va u bilan bog'liq fikr-mulohazalar egallar ekan, buni ishqning ma'naviy ildizi bo'lgan tasavvur ta'limoti bilan bog'lab yoritmaslik ayrim tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ishqning, "ming bir ma'no" kasb etishi e'tirof etib o'tilgan. Shuning uchun ishqiy mavzudagi she'rlarni tahlil etganda ularni yo majoziy, yo haqiqiy ishq talqini deb fikr yuritish anchagina mushkul. Mumtoz shoirlarimiz ijodida esa mahbubaning tashqi qiyofasi ta'riflanganda ham tasavvufiy ma'noni ilgari surish yetakchilik qiladi. Mumtoz adabiyotimizda majoziy va ilohiy ishq uyg'unlikda tasvir etilgan she'rlar ham anchagina. Buni ham mumtoz she'riyatimiz an'analaridan kelib chiqqan holda izohlashimiz mumkin. Bayoniy ijodida hali yuqoridagi holatlar kuzatiladi. U barcha turdagi lirik she'rlarida ishq bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilgan. Bayoniy va unga zamondosh bo'lgan shoirlar ijodini o'rganishda shu narsa muhimki, ular yashagan davrda she'riyatimiz an'anaviylik doirasidan biroz bo'lsada chekinayotgan edi. Yangicha mavzular, yangicha janrlar paydo bo'layotgan bir paytda shoirlarimiz an'anaviy she'riyat bilan bir qatorda davrning muhim voqealariga ko'proq e'tibor qaratishdi. Biz XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan san'atkorlarimiz ijodiga tasavvufona mazmun- mohiyatni asrlar osha davom etib kelayotgan an'anaviylikning yangicha ifodasini kuzatishimiz zarur. Bayoniy lirik she'rlarida zohirda insoniy tuyg'u kechinmalari tarannum etiladi. Uning ishqiy mavzudagi asarlari botinida esa lirik qahramonning yagona yaratuvchiga Ollohga bo'lgan cheksiz ehtirosli muhabbati yotganligini ilg'ash qiyin emas:

Ishq yo'li base dushvor ekandur bilmadim



Yuqoridagi baytga e'tibor qaratadigan bo'lsak "ishq yo'li" deganda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchilig-u mashaqqatlar nazarda tutilgan. Oshiq birinchi qarashda bu yo'lda ikkilanayotgandek ko'rinadi. Biroq bu ikkilanish emas, lirik qahramonning ishq yo'lidagi ranj-u alamlarini to'la his qilgani holda unga qadam qo'yadi va uni o'z ahdidan hech kim va hech narsa qaytara olmaydi. Buni quyidagi baytdan aniq bilishimiz mumkin:

***Ishq savdosi bila kirdim junun bozorig'a
Sangbaroni baloi ishq-chun tayyorman***

Adabiyotshunos I.Haqqulov junun yo'lini ma'rifat va ibodat yo'li deb aytadi. Ishq savdosi og'ir savdo. Bu savdoga oshno bo'lgan jabr-u jafolardan cho'chimasligi, tinmay Haq ma'rifatini o'rganishi va boshqalarga bu yo'lda ibrat bo'lmog'i kerak. Ko'rinadiki, Bayoniy lirik qahramoni e'tiqodida sobit.. Bayoniy ishq insonni yuksaklarga ko'tarishi yetuklikka undashi, mumkinligini to'g'ri bahoalaydi.

***Yo'lda qolgan ishqsizlar holidan andisha qil,
Bo'lg'usi beishq bu yo'lda ko'p ziyonkor ey ko'ngil.***

Bu o'rinda shu narsa kuzatiladiki, shoir oshiqlikda yolg'on va'dalarga berilmaslikka, soxta oshiqlar holi xarob ekanligiga, e'tibor qaratadi. Shoir axloqiy poklik va yaxlitlik uchun qayg'uradi. Shoir kishilarni yaxshilik va yomonlikni farqlashga, nodonlik, yovuzlik va bag'ritoshlikdan saqlanishga undaydi. Har qanday illat va noqisliklarning chorasi ishq deb biladi. Chunki ishq yo'lida yurgan kishi nopokliklardan hazar qiladi. Yuksak va qudratli do'stga qalban bog'lanadi.

***Kecha- kunduz bo'l muhabbat maslakini
Do'st yodi g'ayridin qil o'zni bezor, ey ko'ngul.***

Mazkur o'rinda ham tasavvufona qarash va g'oyalarning ta'siri kuchli seziladi. Do'st yodi deganda Olloh yodi bilan yashash oshiqdan juda katta mas'uliyatni talab etadi. Ruhliy poklik va to'g'rilik buning asosiy zaruratidir. Zotan, tasavvufdagi bosh masala va talablar yaratganga oxirgi nafasgacha muhabbat g'ami bilan kun kechirish, tavba, sabr, ma'naviy kamolat, to'g'rilik, samimiyat, nafsdan g'oliblik, faqru-fanodir. Shoir yuqoridagi baytda umrning oxirgacha ishqda sodiq bo'lish "Do'st yodi "dan o'zga narsalardan saqlanishni nazarda tutmoqda. Kecha-kunduz yaratganning yodi bilan misli insonning ma'naviy yetukligi uchun zarurligini ta'kidlamog'da. Ma'lumki, ishqning turli-tuman po'rtanlari mavjud. Ishq oshiqni yuksaklarga ko'tarish, unga bitmas tunganmas kuch-quvvat bag'ishlab tog'-u toshlarga ko'tarish, qalbiga lag'cha cho'g'



tashlab hijron azobida qiynalish, jismidan quvvatini, belidan kuchini ketkazishi mumkin. Jismida kuch, belida quvvat qolmagan, ishq ko'chalarida sargardon kezgan va xor-zorlikda qolgan oshiq Haqdangina najot kutadi. Bayoniy yozadi:

***Ey Bayoniy , oshiq uldur ishq yo'lida agar,
Har balo keldi boshig'a manglayini chertmadi.***

Shoir talqinicha, inson kamolatida ishq katta ahamiyat kasb etadi, u birinchidan boshiga tushgan balolarga chidamli, ikkinchidan Oллоh berganicha shukur qiladi. Bu kabi fazilatlar insonning ma'naviy kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir baytda yana insonlarni hayotning past-u balandliklariga bardoshli va sabrli bo'lishiga chaqirayapti. U kitobxonni shukronalikka undaydi. Bayoniy ma'shuqani husn aro shahanshoh, oshiqni bu yo'ldagi kamtarin bir gado deb ta'riflaydi.

***Iqlimi husn arodir ma'shuq bir shahanshoh
Ko'yida seni oshiq bir kamtarin gadosi.***

Oshiq tili-yu dilida ma'shuqani yod etadi. Uni ulug'lash va sifatlarini vasf etish oshiqni yanayam yuksaltiradi. Shoir g'oyaviy niyatini ro'yobga chiqarishda oshiq va ma'shuqa obrazlari muhim o'rin tutgan. ma'shuqani shahanshoh, oshiqni esa gadoga o'xshatish orqali tambehi mo'kad (ta'kidli o'xshatish)ga murojaat qiladi.

Tasavvufda Oллоh yaratgan o'z mo'jizasiga, ya'ni insonga tan berib, o'zi ham unga oshiq bo'lgani haqida ba'zi ta'kidlar bor. Bu haqiqatni 70- yillardayoq professor A.Hayitmetov ilg'agan va Navoiy ijodi misolida ko'rsatib o'tgan: "...Odatda so'fizm adabiyotida Hudo ma'shuqa, inson esa uning oshig'i sifatida qaraladi. Navoiy esa buning aksini so'ylamoqda va o'sha tarixiy sharoitidan inson foydasiga hech kim ayta olmagan, aytishga qo'rqqan zo'r gumanistik ideyani qahramonona ilgari surmoqda...".

Bayoniy she'riyatida ham bunga yaqin fikrlarni kuzatish mumkin:

***Kamoli ishq oshiqg'a qilur ma'shuqani oshiq,
Chu nuqson mandadur bir tinglamas serg'oni arg'on.
Bayoniy, yorning yo'lida bo'l ag'yordin ozod,
Degan shoyadki ber shod aylayin ul xokzorimni.***

Bayoniy haqiqiy ishq ahli bo'lmoq uchun ma'shuqani sevishning o'zi kifoya qilmaydi, balki ishq orqali ma'shuqaning sevgisini ham qozonmoq zarur deb keltiradi. Zero, adabiyotshunos S.Olimov ham ishq aro sodiqlikni yor visoliga erishishning birinchi sharti deb ta'riflaydi. Ammo Bayoniy lirik qahramoni



ma'shuqa sevgisiga sazovor bo'lmagani uchun aziyat chekadi va aybni o'zidan izlaydi. Buning uchun ag'yordek ozod bo'lish lozimligini uqtiradi. Tasavvuf adabiyotida ag'yor deganda nafsga doir fikrlar tushiniladi. Bunda ma'shuqa sevgisiga va e'tiboriga mast bo'lishi uchun oshiq nafsni yengishi kerak. Demakki, oshiq o'zi ma'naviy-ruhiy jihatdan eng katta to'siq bo'lgan nafs iskanjasida bo'lgan pok ishqiga musharraf bo'ladi. Bayoniy mazkur o'rinda Haqqa yetish uchun haqiqiy oshiqlik sifatlariga ega, Haqni izlash, bu yo'ldagi to'siqlarga qarshi kurashishga chaqiradi va ana shundagina oshiq maqsadiga erishadi, deb biladi. Insonning eng oliyanob sifatlaridan biri bu, o'z aybiga iqror bo'lish va yo'l qo'yilgan xatolar uchun aybni o'zidan izlay bilishdir. Bunday insonlar o'z hayot yo'llari va maqsadlari, intilishlarini to'g'ri belgilab oladilar va o'z orzu- niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun dadil harakat qiladilar. Bayoniyning yuqoridagi baytlari mazmuniga xuddi shu hayotiy mantiq nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, shoir insonni nuqson kamchiliklarini o'zidan izlashga chaqiradi. Buni to'la anglamay turib, fig'on chekishning foydasi yo'qligini uqtiradi.

Bayoniy insonning ma'naviy yetukligini ko'rsatuvchi belgilardan biri uning xulqi va go'zal fazilatlaridadir, deb hisoblaydi. Uning tasavvuridagi ma'shuqa ezgu xulqli, ma'naviy fazilatlarga boydir. Quyidagi baytda bu fikrlar o'zining yorqin tasdig'ini topgan:

***Kelib ushlab qo'limdin, lutf ila yonida o'tqizsa,
Guharposh etsa har bir lafzini chundir xumob aylab.***

Shoir mahbubani nafaqat muloyim va chiroyli, balki har bir so'zi ma'nodor, fahm va farosatli tarzda tasvirlaydi. Shoirning bu fikrlari g'oyatda ibratli bo'lib, u inson zotining fazilatlari unga zebi-ziynat ekaniga e'tiborini qaratadi.

Bayoniy odamlarni har tomonlama yetuk inson bo'lishga chaqiradi. U insonlarni bu dunyoga bog'lanib qolmaslikka da'vat etadi:

***Topmasam la'ling zulolidan hayoti novidan,
Dahr aro men chashmai Xizr Iskandarni netay.***

Mazkur o'rinda shoir mahbuba labini Xizr va Iskandar izlagan tiriklik yuzidan ustun qo'yish orqali mahbubani yuksak sanamoqda.

Xizr va Iskandar obrazlariga ishora qilish orqali talliq sa'natiga murojaat etilgan bo'lib, go'zal badiiy lavha yaratilgan. Bayoniy mumtoz she'riyat an'anasiga binoan ma'shuqa labining "chashmai hayvon"dan ortiq ekanini bayon etadi. Uning lirik qahramoni ma'naviy-ruhiy go'zallikni yuksak sanagani holda



o‘tkinchi umrni sarxush o‘tkazuvchi, zohiriy belgilargagina e‘tibor beruvchi kishilarni qattiq tanqid qiladi. Haqiqiy lazzat “la’li zaloli” ekanini ta’rif etadi.

Bayoniy qarashlariga ko‘ra sabr-u qanoat insonning bosh (qahramonlari) fazilatlaridan biridir. Shoir sabr bilan bog‘liq fikr-mulohazalarini ta’sirchan, yuksak mahorat bilan yaratilgan misralarda bayon etilgan.

***Doimo sabr-u qaror aylarga amr aylar yana,
Bir tog‘afil birla besabru qaror aylar mani.***

Baytda oshiq ma’shuqaning sabr-u qarorli bo‘lish haqidagi amriga bo‘ysunish, biroq, ayrim holda lirik “men” bilib-bilmasdan bu amrni unutish keltirildi. Shoir bunda oshiqning besabrligining bosh sababchisi ma’shuqa deb keltiriladi. Bayoniy she’riyatida ayrim hollarda sabr bilan bog‘liq baytlar qatiga tasavvufiy ohanglar singdirilgan bo‘lib, ularda shoir ilohiy yor visoliga erishish uchun oshiq ko‘pdan-ko‘p ruhiy qiynoqlar va azoblarga sabr bilan bardosh berish, ana shundagina haqiqiy maqsadga erishish mumkinligini aytadi. Shoir yozadi:

***Borib sabr-u qaror-u toqatim quyi junun ichra,
Tunu-kun nola-yu faryod-u afg‘on birla zoringman.***

Adabiyotshunos N.Komilov sabrni solikning ruhiy ma’naviy kamolati bosqichlaridan biri ekanligini ta’kidlab shunday yozadi: “Sabr toqat, chidam so‘fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik, sabr etuvchining, o‘zini balo girdobiga solib, balolardan qo‘rqmaydigan odamlar... Sabr iymonning dushmani bo‘lgan nafs sabr orqali gavdalanadi, toqatdan halovat topish ham sabr bilan bo‘ladi.”{2} Ya’ni lirik qahramon boshiga tushgan balo, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan, sabrli solikdir. U o‘z dardini Allohga aytib iltijo qiladi va undagina madad kutadi. Zero, bu maqomda bo‘lgan kishi maqsadga yetadi. Shoir bu o‘rinda kishilarni o‘z maqsadlari yo‘lida toqatli bo‘lishga, yaratgandagina mushkulini oson qilishni so‘rashga chaqiryapti.

***Rahbarlik istasang, avval senga rahbar kerak,
Rahbari berahbarga, sa’bdur qat’i tarid.***

Bayoniy insonni hayotda xuddi bir sayohatchi yo‘lovchidek yashab o‘tadi, deb hisoblaydi. Aks holda esa rahbarsiz yurgan kishi og‘ir, mashaqqatlarga, qiyinchiliklarga duchor bo‘lishi shubhasizdir. Mazkur o‘rinda shoir insonning xulqi, xatti-harakatlari, fazilatlarini ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya tufayli to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish mumkinligini keltiradi. Ustoz shogirdlik munosabatlarini



qadrlashga, bu munosabatlarning jamiyat taraqqiyotidagi rolini ko'rsatib berishga harakat qiladi.

Bayoniy lirik she'riyatda rahbar, rahnamo bilan bog'liq o'rinlarda ko'pchilik tasavvufona g'oyalar ruhi yetakchilik qiladi. Bunda shoir ma'naviy ustozning rahbarligi ostida tasavvufga kirgan solikning ma'nan tozalanish jarayonini tasvirlab beradi:

***Bayoniy, ishqning osmon xusnosiga ur ilging,
Ki shoyad yetkazsin, maqsadga oning rahbari birla.***

Tasavvufga ko'ra, murid tariqat yo'liga kirgach piri-rahbarining ma'naviy tarbiyasini olmog'i shart hisoblanadi.

Ma'naviy ustozning rahbarligisiz tasavvufga kirgan tolib, Haqdan g'ofil yurgan hisoblanadi. Bayoniyning yuqoridagi baytida xuddi shu fikrlarga o'xshash jihatlarni kuzatamiz. Bayoniy ishq yo'liga kirgan kishi ma'naviy rahbar tarbiyasi bilangina o'z maqsadiga yetishishi mumkin deb biladi.

Baytning dunyoviy mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak shoir rahbar deganda yo'l boshchini, ustozni nazarda tutgan bo'lib, u yaxshi tarbiya ko'rgan, o'z ustozidan o'z kasbi sir-u asrorlarini puxta o'rgangan kishigina hayotda qiyin vaziyatga tushib qolmasligi mumkin, deydi shoir. Zero, shoir she'riyatining bunday mazmuni kishilarni ezgu xislat va fazilatlar egasi bo'lib yetishishlarida mashaqqatlarga chidamli bo'lishga, ustozlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

***Chun qulog'im kun bai ishq bilan masduddur,
Nosihoga, ne sud agar san bo'l bu kun shayxi shafaq.***

Tariqat yo'lidagi ma'naviy ustoz-pirni, shayx, murshid, ma'shuq soqiy yor, piri tariqat, piri suhbat, piri nug'on, piri komil, sohibdil va shunga o'xshash so'fiyona istilohlar bilan ataganlar. Shoir bu o'rinda ana shunday pir o'rnida shayx istilohini qo'llab, tariqat yo'liga ilk qadam qo'ygan oshiqning ruhiy kechinmalarni ifodalab bergan. Ya'ni oshiqning faqat ishq bilangina cheklanib qolmasligi bu yo'lda unga shayx yo'l-yo'riq ko'rsatishi nazarda tutilgan. Bayt she'riy san'atlarning qo'llanilishi jihatidan ham e'tiborga molik bo'lib, shoir unda lirik qahramon holati, tuyg'ularni nosihoga murojaati tarzida bayon etadi va iltifot san'atidan mohirona foydalangan. Shoir ijodida madh etilgan komil inson masalasini u yashagan davr va shu davrdagi adabiy yo'nalishlar bilan bog'liq holda o'rganish lozim.



ADABIYOTLAR:

1. Баёний. Ғазаллар. –Т.: 1962, 17-бет.
2. Комилов Н. “Аҳд қилдим ишқ лавзин. А. Навоий ғазаллар шарҳлар. -Т.: 123-бет
3. Раҳманов Н. О'zbek adabiyoti tarixi(yeng kadimgi davlardan 15 asrning birinchi yarmigacha) o'kuv ko'llanma –Т. ”Shark standart”, 2017.
4. Абдурахманов А.Туркий адабиётнинг қадимги даври. -Т.2005
5. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi
6. <http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta'lim sayti
7. <http://book.uz> – Yelektron adabiyotlar kutubxonasi
8. <http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti
9. <http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi
- 10.<http://txt.uz> – Yelektron kutubxona